

## BUXORO VILOYATI AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI: TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

Tuxtamuratova Dilnoza Dilmurodovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15915240>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> June 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> June 2025

Published: 15<sup>th</sup> July 2025

### KEYWORDS

Doimiy aholi, mehnat resurslari, mehnat bozori, iqtisodiy faol aholi, ishsizlik, iqtisodiy diversifikatsiya

### ABSTRACT

*O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismida, Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan Buxoro viloyati tarixiy ahamiyat kasb etadigan, madaniy boylik va tabiiy go'zallikka ega viloyatdir. Buxoro viloyati tarixiy ta'sirlar, iqtisodiy o'zgarishlar va aholi dinamikasi bilan shakllangan dinamik mehnat bozoriga ega. Ushbu maqolada biz Buxoro viloyati aholisi va mehnat resurslarining asosiy jihatlarini o'rganamiz, bandlik tendentsiyalari, muammolar va kelajakdagi imkoniyatlarini atroflicha yoritamiz.*

*Buxoro viloyati qadimiy meros, jonli madaniyat va rivojlanayotgan imkoniyatlarning maftunkor uyg'unligidir. Uning landshafti, odamlari va tarixiy ahamiyati uning taqdirini shakllantirishda davom etmoqda. Buxoro viloyati maydoni 39 400 km<sup>2</sup>. Buxoro viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni 2 050,6 ming kishini tashkil etib, yil boshigan 6,6 ming kishiga yoki 0,3 % ga ko'paydi. Bu o'sib borayotgan aholi ish joylariga bo'lgan talabini oshiradi va ishchi kuchining ishtirokini kuchaytiradi. Shu o'rinda savol tug'iladi, doimiy aholi nima degani? Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi. Buxoro viloyatida doimiy aholi sonining erkaklar 50.1% (1 028,2 ming kishi)ni, ayollar esa 49,9% (1 022,4 ming kishi)ni tashkil etadi. Jumladan, shahar aholisi soni 756,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,9 %), qishloq aholisi soni 1 294,2 ming kishi (63,1 %)ni tashkil etdi. Agarda viloyat hududlari bo'yicha doimiy aholi soni taqsimotini tahlil qiladigan bo'lsak, doimiy aholisi soni eng ko'p G'ijduvon tumanida 323,6 ming kishi, Buxoro shahrida 296,0 ming kishi, Shofirkon tumanida 186,7 ming kishi, eng kam aholi soni Qorovulbozor tumanida 20,0 ming kishi, Kogon shahrida 64,9 ming kishi va Kogon tumanida 85,0 ming kishini tashkil etgan. Yoki viloyatdagi doimiy aholi taqsimlanishini shaharlar kesimida oladigan Buxoro shahri 270.9 ming kishi, Kogon shahri 64.9 ming kishi, G'ijduvon shahri 50.6 ming kishi, Qorako'l shahrida 25.9 ming kishi va Vobkent shahrida 20.7 ming kishini tashkil etgan. Kosari shaharchasi nafaqat viloyatdagi balki respublikadagi eng kam aholi soniga ega bo'lgan shaharchalardan biri hisoblanadi.*

Buxoro viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 51,0 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 0,9 kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga 50,1 kishi). Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida 4 063,1 kishi, Kogon shahrida 4 228,0 kishi, Vobkent tumanida 511,7 kishi, Kogon tumanida 168,6 kishini, Buxoro tumanida 135,6 kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida 9,1 kishi, Peshku tumanida 15,1 kishi,

Qorako'l tumanida 19,8 kishi, Olot tumanida 32,4 kishi, Jondor tumanida 36,0 kishi, Shofirkon tumanida 50,2 kishini tashkil etgan.

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 29,5 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 57,4 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 13,1 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi).

Ushbu jadval bux.stat.uz saytining mehnat bozori bo'limidan olingan bo'lib, jadvalda Buxoro

**Mehnat bozori**

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
<b>Ish bilan band aholi (bir davrda o'rtacha; ming kishi)</b>													
Iqtisodiy faol aholi	810,0	825,0	844,5	859,3	868,5	872,4	872,4	874,6	887,7	875,4	881,9	862,2	860,6
shundan: ish bilan ta'minlangan	768,1	784,7	804,4	818,4	823,2	824,2	825,3	826,5	810,1	797,1	788,0	777,3	784,5
<b>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</b>													
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	238,6	242,8	235,6	238,7	240,5	245,0	246,0	254,8	252,1	245,2	250,3	231,5	227,5
Sanoat	95,7	97,7	99,7	101,6	103,5	105,2	107,3	108,1	103,1	101,7	92,9	99,7	92,3
Qurilish	102,7	105,4	108,4	111,8	115,5	119,6	123,5	125,3	114,9	118,3	115,6	102,7	99,4
Savdo	69,4	71,2	73,1	74,9	76,6	78,3	80,2	81,7	76,3	77,9	73,8	73,0	70,4
Tashish va saqlash	35,0	36,7	38,5	40,4	42,3	44,3	46,4	48,3	46,3	44,1	42,0	42,3	40,5
Ta'lim	63,6	63,7	63,8	63,9	64,0	64,0	64,0	64,1	64,2	63,2	66,9	71,7	72,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	40,2	40,3	40,4	40,5	40,6	40,6	40,6	40,6	40,7	39,7	44,2	40,5	39,9
Boshqa turlari	122,9	126,9	144,9	146,6	140,2	127,2	117,3	103,6	112,5	107,0	102,3	115,9	141,9
<b>Ish bilan band aholini mulkchilik turlari bo'yicha taqsimlash</b>													
Davlat sektori	146,4	147,1	148,5	142,9	140,1	140,7	139,0	138,6	144,3	143,8	142,2	382,4	427,2
Nodavlat sektori	621,7	637,6	655,9	675,5	683,1	683,5	686,3	687,9	665,8	653,3	645,8	394,9	357,3
Mehnat idoralari ro'yxatdan o'tgan ishsizlar <sup>1)</sup>	1,4	0,5	0,4	0,1	0,1	0,2	0,2	0,8	1,1	3,6	3,1	3,7	6,4

viloyatining ish bilan band aholi, iqtisodiy faol aholi va ish bilan band aholini mulkchilik turlari bo'yicha taqsimlanish ko'rsatkichlari 2010-2022-yillar oralig'idagi holati bayon etilgan. Bizga ma'lumki ish bilan band aholi iqtisodiy faol aholining bir qismi hisoblanadi. Xo'p iqtisodiy faol aholi nima degani? Iqtisodiy faol aholi-aholining daromad keltiradigan ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lgan qismi, qaysiki nogironligi bo'lmagan mehnat yoshidagi, yoki mehnat yoshida bo'lmagan ammo ishlashga muhtoj bo'lgan shaxslardir. Iqtisodiy faol aholini quyidagicha ta'riflash mumkin:


$$IF= IB+II$$

IF= iqtisodiy faol aholi

IB=ish bilan band aholi

II=ish bilan band bo'lmagan, lekin ishga joylashishga muhtoj shaxslar.

Bu formuladan foydalanib, iqtisodiy faol aholi tarkibidagi ishsizlar sonini topishimiz mumkin.



### 2010-yil hol

2011-atiga qaraydigan bo'lsak, Buxoro viloyatida iqtisodiy faol aholi soni(IF)- 810 ming kishi, 2012-ish bilan band aholi soni (IB) 768.1 ming kishi bo'lgan, ishlashga muhtoj shaxslar (II) soni esa 41.9 ming kishiga teng bo'lgan. Endi 2022-yil holatiga qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy faol aholi soni 860.6 ming kishi, ish bilan band aholi soni 784.5 ming kishi, ishga muhtoj shaxslar soni 76.1 ming kishiga yetdi. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, oradan 12 yil vaqt o'tgan bo'lsada, ishga muhtoj kishilar soni kamayish o'rniga 1.8 martaga oshgan.

Mintaqada 1 milliondan ortiq mehnatga layoqatli shaxslar mavjud bo'lib, ulardan taxminan 76000 nafari ishsiz.

- Har yili 37000 ga yaqin yoshlar mehnat bozoriga kirib, ish topish imkoniyatini izlaydilar.
- Ishsizlikni bartaraf etish uchun viloyat hokimiyati ulkan maqsadlarni oldiga qo'ydi. Bunga misol tariqasida yil oxirigacha Buxoro viloyatida 250 000 ta yangi ish o'rni yaratish rejasini keltirishimiz mumkin. Ushbu sa'y-harakatlar kichik biznesni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

*Grafik Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlariga muvofiq tuzildi.*

Buxoro viloyatida sanoat izchil rivojlanmoqda. 2023-yil yanvar-mart holatiga sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati 1,854,7 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu esa 2022-yilning shu davriga nisbatan 3.3 % ga o'sganini ko'rsatadi. Ushbu o'sishni boshqaradigan asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- Iqtisodiy diversifikatsiya: mintaqa sanoat bazasini, shu jumladan to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish kabi sohalarni diversifikatsiya qildi. Mintaqa iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi va an'anaviy hunarmandchilikka tayanadi. Texnologiyalar, xizmatlar va turizm kabi sohalarga diversifikatsiyani rag'batlantirish barqaror turmush tarzini yaratishi va yagona sohaga bog'liqlikni kamaytirishi mumkin.

- Infratuzilmani rivojlantirish: infratuzilmaga investitsiyalar kiritilishi sanoatni kengaytirishga yordam berdi. "Buxoro yo'l tarmog'ini takomillashtirish loyihasi" kabi yo'l tarmoqlariga investitsiyalar ulashish va iqtisodiy imkoniyatlarni oshiradi. Biroq, infratuzilmani

rivojlantirishni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan muvozanatlash nozik vazifadir. Iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan muvozanatlash juda muhimdir. Buxoro viloyatida ekologik toza amaliyot va yashil sanoatni rivojlantirish kerak.

- Malakali ishchi kuchi: malakali ishchi kuchining mavjudligi sanoatning o'sishiga olib keladi. Ammo norasmiy bandlikning keng tarqalishi viloyat aholisi o'rtasida qiyin bo'lib qolmoqda. Ko'pgina ishchilar norasmiy sektorda faoliyat yuritadi. Buning natijasida esa aholi ijtimoiy himoya va barqaror daromadga ega emas. Bundan tashqari aholida mavjud ko'nikmalar va sanoat talablari o'rtasidagi farqni bartaraf etish masalasi ham dolzarbligicha



qolmoqda. Kasb-hunar ta'limi va ta'lim dasturlari ushbu muammoni qisman hal qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyatida mehnat bozori muhim pallada. Ish o'rinlarini yaratish, muammolarni hal qilish va inklyuziv o'sishni rag'batlantirish orqali mintaqa o'z salohiyatini to'liq ochishi mumkin. Strategik investitsiyalar, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, malaka oshirish tashabbuslari Buxorodagi ishlarning kelajagini shakllantirish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1..M.R.Bo'riyeva, Z.N. Tojiyeva,S.S.Zokirov-"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari"-T.2011
2. <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/37742>
3. <https://kun.uz/en/news/2023/09/07/250-thousand-new-jobs-to-be-created-in-bukhara-region-by-year-end>
4. <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/39581>
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/Bukhara\\_slave\\_trade](https://en.wikipedia.org/wiki/Bukhara_slave_trade).
6. [https://www.buxstat.uz/uploads/press-relizlar/2024/dem/dem\\_mart.pdf](https://www.buxstat.uz/uploads/press-relizlar/2024/dem/dem_mart.pdf)